

**MISR SHEVASIGA ITALYAN TILIDAN O'ZLASHGAN SO'ZLAR:
LINGVISTIK TAHLILI, KIRIB KELISH YO'LLARI, SABAB VA
OQIBATLARI**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq xalqlari tillari va adabiyoti
institute Arabshunoslik oliy maktabi dotsenti f.f.d.*

H.A. Yuldasheva

70230101 Lingvistika (arab tili) yo'nalishi I bosqich magistranti

Sidikova Manzurabonu Akbarovna

bonusydyk@gmail.com

+998903996917

Annotatsiya: *“Misr shevasiga italyan tilidan o'zlashgan so'zlar: lingvistik tahlil, kirib kelish yo'llari, sabab va oqibatlari” nomli maqola Misr shevasiga italyan tilidan o'zlashgan so'zlar va ularning lingvistik tahlilini, kirib kelish yo'llari, sabab va oqibatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Misr arab tili tarixiy, madaniy va iqtisodiy omillar tufayli ko'plab boshqa tillardan, jumladan italyan tilidan, o'zlashgan so'zlarga ega. Italyancha so'zlarning Misr shevasiga kirib kelishining asosiy sabablari savdo aloqalari, sanoat, madaniyat va arxitektura sohalaridagi italyan ta'siri bilan bog'liq. Maqolada bu so'zlarning fonetik, morfologik va semantik o'zgarishlari, ularning arabcha muqobillari bilan taqqoslash, shuningdek, o'zlashish jarayonining bosqichlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, italyancha so'zlarning Misr shevasida qanday funktsional o'zgarishlarga uchraganligi va ular hozirgi Misr arab tilida qanday ishlatilishi haqida ham so'z boradi. Maqola, lingvistika va tilshunoslik bo'yicha ilmiy izlanishlar uchun muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.*

Kalit so'zlar: *Misr shevasi, italyan tili, o'zlashish, lingvistik tahlil, semantik o'zgarish, dialektal aloqalar, arab tilining leksik tizimi, savdo va iqtisodiy aloqalar, fonetik o'zgarishlar, leksik integratsiya.*

Аннотация: *Статья под названием «Итальянские заимствования в египетском диалекте: лингвистический анализ, пути заимствования, причины и последствия» посвящена изучению итальянских заимствований в египетском диалекте, их лингвистическому анализу, путям заимствования, причинам и последствиям. Вследствие исторических, культурных и экономических факторов египетский арабский язык вобрал в себя множество заимствованных слов из различных языков, включая итальянский. Основные причины проникновения итальянских слов в египетский диалект связаны с торговыми отношениями, промышленностью, культурой и влиянием Италии в архитектуре. В статье рассматриваются фонетические, морфологические и семантические изменения этих слов, их сопоставление с арабскими эквивалентами, а также анализируются этапы процесса заимствования. Кроме того, обсуждаются функциональные изменения итальянских слов в египетском диалекте и их современное использование в египетском арабском языке. Статья предоставляет ценные сведения для лингвистических и филологических исследований.*

Ключевые слова: *египетский диалект, итальянский язык, заимствование, лингвистический анализ, семантические изменения, диалектные связи, лексическая система арабского языка, торговые и экономические связи, фонетические изменения, лексическая интеграция.*

Annotation: *The article titled “Italian Loanwords in the Egyptian Dialect: Linguistic Analysis, Borrowing Paths, Causes, and Consequences” is dedicated to studying Italian loanwords in the Egyptian dialect and their linguistic analysis, borrowing paths, causes, and consequences. Due to historical, cultural, and economic factors, Egyptian Arabic has incorporated numerous loanwords from various languages, including Italian. The primary reasons for the introduction of Italian words into the Egyptian dialect are linked to trade relations, industry, culture, and Italian influence in architecture. The article examines the phonetic, morphological, and semantic changes of these words, comparing them with their Arabic equivalents, and analyzing the stages of the borrowing process. Additionally,*

it discusses the functional changes Italian words have undergone in the Egyptian dialect and how they are used in modern Egyptian Arabic. This article provides valuable information for linguistic and philological research.

Keywords: *Egyptian dialect, Italian language, borrowing, linguistic analysis, semantic change, dialectal relations, Arabic lexical system, trade and economic relations, phonetic changes, lexical integration.*

Til har qanday jamiyatning madaniyati, tarixi va kundalik hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u vaqt o'tishi bilan boshqa tillar ta'sirida rivojlanib boradi. Misr arab shevasi ham uzoq tarix davomida turli madaniy aloqalar va iqtisodiy omillar natijasida boshqa tillardan, jumladan, italyan tilidan ko'plab so'zlarni o'zlashtirgan. Italiya va Misr o'rtasidagi munosabatlar qadimgi Rim davridan boshlab rivojlangan. Keyinchalik Venetsiya va Genuya kabi shahar-davlatlar orqali, XIX-XX asrlarda esa Italiyaning Misrdagi faol ishtiroki tufayli ko'plab italyanacha so'zlar Misr shevasiga singib ketgan. Ushbu maqolada italyan tilidan Misr shevasiga o'zlashgan so'zlarning tarixi, asosiy guruhleri va ularning arab tilidagi muqobillari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Misr va Italiya o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarga kelsak, Misr miloddan avvalgi 30-yilda Rim imperiyasining tarkibiga kirdi. Rim imperiyasining harbiy, iqtisodiy va madaniy ta'siri natijasida lotin va italyanacha so'zlarning ba'zilari Misrga kira boshladi. O'sha davrda Misr don mahsulotlarini Rimga eksport qilgan va Rimlik askarlar Misrda xizmat qilgan. Natijada, harbiy va iqtisodiy terminlar italyan tilidan o'zlashgan. O'rta asrlarda Venetsiya va Genuya savdo yo'llari orqali Misr bilan faol aloqalar o'rnatgan. Italiyalik savdogarlar Iskandariya porti orqali turli mahsulotlarni olib kelgan va bu jarayonda italyanacha savdo terminlari Misr shevasiga singib ketgan. Muhammad Ali Pasha boshchiligida (1805-1848) Misr modernizatsiya jarayonini boshlab yubordi. Bu jarayonda Italiyaning muhandislik va qurilish sohalarida ishtiroki katta bo'ldi. Shu sababli, qurilish va texnik terminlarning ko'pchiligi italyanacha ildizga ega bo'ldi. Ikkinchi jahon urushi davomida Misr Britaniya va Italiya harbiylari o'rtasidagi muhim strategik hudud

bo'ldi. Urush jarayonida harbiy terminlar, shuningdek, transport va texnologiya bilan bog'liq italyancha terminlar Misr shevasiga kirib bordi.

So'zlashuv tili sifatida foydalaniladigan arab lahjalari Arab dunyosi bo'ylab turli xalqlarning nutqiy tillari yoki shevalari uchun umumiy atamadir. U arab tilidan kelib chiqqan bo'lsa-da, alohida til hisoblanadi. Ba'zi lahjalarning so'zlashuvchilari boshqa arabcha lahjalar so'zlashuvchilarini tushuna olmasligi mumkin. So'nggi vaqtlarda so'zlashuv arabchasida yozilgan matnlarning soni keskin oshib bormoqda.¹

Misr va Italiya o'rtasidagi savdo aloqalari uzoq tarixga ega bo'lgani sababli iqtisodiy va moliyaviy terminlar italyan tilidan o'zlashgan. Masalan, “banco” (بَنْكُو) so'zi italyan tilidagi banco so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bugungi kunda “bank” ma'nosida ishlatiladi. Uning adabiy arab tilidagi muqobili “masrif” (مَصْرِف) so'zidir. “Borsa” (بُورْصَة) so'zi ham italyancha borsa so'zidan olingan bo'lib, “fond birjasi” ma'nosini anglatadi. Adabiy arab tilida bu tushuncha “suq al-mal” (سُوق المَال) deb ifodalanadi. Hisob-kitob hujjati ma'nosida ishlatiladigan “factura” (فَاتُورَة) so'zi italyancha fattura so'zidan olingan bo'lib, arab tilida uning muqobili “iysal” (إِيصَال) so'zidir. Shuningdek, Misrda XIX-XX asrlarda qurilish sohasida Italiyaning ta'siri sezilarli darajada bo'lgan. Natijada quyidagi so'zlar italyan tilidan o'zlashgan. Masalan, “cemento” (سِيْمَنْتُو) so'zi italyancha cemento so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “sement” ma'nosini anglatadi. Adabiy arab tilida esa u “asmant” (أَسْمَنْت) deb yuritiladi. “Marbo” (مَرْبُو) so'zi italyancha marmo so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “marmar” ma'nosini anglatadi. Uning adabiy arabcha muqobili “rukham” (رُخَام) so'zidir. “Scala” (سَكَّالَا) so'zi italyancha scala so'zidan olingan bo'lib, “zina” yoki “pog'ona” ma'nosini anglatadi. Adabiy arab tilida esa bu tushuncha “daraj” (دَرَج) deb yuritiladi.

XX asrda Suriya va Misrda arab til akademiyalari tashkil etilib, boshqa tillardan tarjima qilingan va arablashtirilgan yangi so'zlarni qabul qilish va

¹ Khaled Shaalan, H. M. Abo Bakr, and I. Ziedan. Transferring Egyptian Colloquial Dialect into Modern Standard Arabic. – Borovets, International Conference on Recent Advances in Natural Language Processing (RANLP), 2007. (2-bet)

ommalashtirish maqsad qilingan.²

Bundan tashqari italyan oshxonasi Misrda juda mashhur bo'lib, quyidagi terminlar kundalik hayotda keng ishlatiladi. Masalan, “macarona” (مَكْرُونَة) soʻzi italyancha maccheroni soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “makaron” maʼnosini anglatadi. Adabiy arab tilida bu soʻz “maʼkarona” (مَعْكُونَة) shaklida uchraydi. Pishloq maʼnosida ishlatiladigan “formaggio” (فُورْمَاجُو) soʻzi italyancha formaggio soʻzidan olingan boʻlib, uning adabiy arab tilidagi muqobili “jubn” (جبن) soʻzidir. Kolbasa turi boʻlgan “salami” (سَلَامِي) soʻzi italyancha salame soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, arab tilida bu tushuncha “niqaniq” (نِقَانِق) deb ifodalanadi. Iskandariya porti orqali Italiya va Misr oʻrtasida savdo va turizm rivojlangani uchun quyidagi soʻzlar oʻzlashgan. Masalan, “barca” (بَرْكَة) soʻzi italyancha barca soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “qayiq” maʼnosini anglatadi. Uning adabiy arab tilidagi muqobili “qarib” (قَارِب) soʻzidir. “Porto” (بُورْتُو) soʻzi italyancha porto soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “port” yoki “bandargoh” maʼnosini anglatadi. Adabiy arab tilida esa bu tushuncha “mina” (مِينَاء) deb yuritiladi.

Koʻpincha bunday soʻzlar adabiy tilda avval mavjud boʻlmagan, kundalik hayotdagi narsalar yoki hodisalarni ifodalovchi atamalarni oʻz ichiga oladi. Buning sababi shundaki, Arab dunyosida uygʻonish davrida yangi turdagi jihozlar, texnik qurilmalar, joy nomlari, kasblar, kiyim-kechak qismlari va shu kabi tushunchalar paydo boʻldi.³

Quyida esa yuqorida taʼkidlangan kundalik hayotning turli sohalariga italyan tilidan kirib kelgan oʻzlashma soʻzlar bilan tanishib chiqamiz:

1. Callo (It.) → كَالُو (Misr shevasi)

Maʼnosi: Oyoqdagi qadoq, qalinlashgan teri

Arab adabiy tili: مَسْمَار الْقَدَم (mismar al-qadam)

Sharh: Bu soʻz tibbiyot va kundalik hayotda ishlatiladi. Oyoq yoki qoʻldagi qadoqlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Misol:

² Muhammad M. Enani, Dr. Mona Naeim Ahmed. Egyptian Arabic vs. MSA and Heritage Arabic: A Morphological Approach with Reference to Western Theories. – “التربوية والاجتماعية الإنسانية والبحوث للدراسات النيل وادي مجلة” (Wadi Al-Nil Journal for Human, Social, and Educational Research), 2023. (19-bet)

³ Ewa Machut-Mendecka. The Egyptian Dialect as an Expression of Linguistic Change in Arab Countries. – Varshava, “Rocznik Orientalistyczny,” (volume LXIV, issue 2, pages 46–53 of), 2011 (48-bet)

<https://scientific-jl.com/>

!رجلي وجعتني بسبب الكالو اللي طلع فيها

(Oyoqlarim qattiq og'riyapti, chunki qadoq paydo bo'ldi!)

2. Vitello (It.) → فتلو (Misr shevasi)

Ma'nosi: Mol go'shti, buzoq go'shti

Arab adabiy tili: لحم العجل (lahm al-'ijl)

Sharh: Misr oshxonasida go'shtning turli xil turlari ishlatiladi, shuning uchun bu atama italyan tilidan kirib kelgan. Misol:

!لحمة الفتلو طعمها لذيذ جدًا

(Mol go'shti juda mazali!)

3. Primo (It.) → بریم (Misr shevasi)

Ma'nosi: Birinchi, eng yaxshi

Arab adabiy tili: الأول (al-awwal)

Sharh: Bu so'z odatda darajalarni ifodalashda yoki biror narsaning eng yuqori sifatli ekanini ta'kidlashda ishlatiladi. Misol:

!الأكل في المطعم ده بریم

(Bu restorandagi ovqat a'lo darajada!)

4. Bomba (It.) → بومبة (Misr shevasi)

Ma'nosi: Bomba, juda yaxshi narsa (slang)

Arab adabiy tili: قنبلة (qunbula)

Sharh: Ushbu so'z asosan metaforik ma'noda "ajoyib, zo'r" degan ma'noda ishlatiladi. Misol:

!الفيلم ده كان بومبة

(Bu film ajoyib edi!)

5. Posta (It.) → بوستا (Misr shevasi)

Ma'nosi: Pochta

Arab adabiy tili: البريد (al-barid)

Sharh: Pochta tizimi Yevropa tomonidan kiritilganligi sababli, bu so'z bevosita italyan tilidan o'zlashgan. Misol:

أنا رايح مكتب البوستا عشان أبعت جواب

(Men pochtaga boraman, xat yuborishim kerak.)

6. Gelato (It.) → جيلاتة (Misr shevasi)

Ma'nosi: Muzqaymoq

Arab adabiy tili: مثلجات (mathlajaat)

Sharh: Italiyaning muzqaymoqlari mashhur bo'lgani uchun bu so'z Misr shevasiga kirib kelgan. Misol:

الجيلاتة الإيطالية طعمها خرافة!

(Italiya muzqaymog'i juda mazali!)

7. Falso (It.) → فالسو (Misr shevasi)

Ma'nosi: Soxta, qalbaki

Arab adabiy tili: مزيف (muzay-yaf)

Sharh: Ushbu so'z odatda soxta mahsulotlar yoki yolg'on gaplar haqida gapirganda ishlatiladi. Misol:

الساعات دي فالسو مش أصلية!

(Bu soatlar soxta, asl emas!)

8. Vespa (It.) → فيسبا (Misr shevasi)

Ma'nosi: Skuter (motosikl)

Arab adabiy tili: دراجة نارية (darajaa nariya)

Sharh: Vespa — Italiyaning mashhur skuter brendi bo'lib, bu nom umumiy atamaga aylangan. Misol:

!هو دائماً بيمشي بفيسبا بتاعته في الشوارع

(U doim shahar bo'ylab skuterida yuradi!)

9. Forma (It.) → فورمة (Misr shevasi)

Ma'nosi: Forma, shakl, sport formasi

Arab adabiy tili: شكل (shakl), هيئة (hay'a)

Sharh: Bu so'z sport bilan bog'liq holda ishlatiladi, ayniqsa fitnes va mushak shakli haqida gapirganda. Misol:

!أنا محتاج أرجع للفورمة بتاعتي

(Men yana sport formasiga qaytishim kerak!)

10. Caffetteria (It.) → كافيتيريا (Misr shevasi)

Ma'nosi: Kafeteriya, kichik kafe

Arab adabiy tili: مقهى (maqha)

Sharh: Misrda G'arb uslubidagi kafe va restoranlar ko'plab mavjud bo'lgani uchun bu so'z o'zlashgan. Misol:

!هنشرب قهوة في الكافتيريا دي

(Bu kafeteriyada qahva ichamiz!)

11. Cambiale (It.) → كمبيالة (Misr shevasi)

Ma'nosi: To'lov veksellari, moliyaviy hujjatlar

Arab adabiy tili: سند مالي (sanad maali)

Sharh: Bank tizimi va kreditlar bilan bog'liq so'zlar Yevropa orqali kirib kelgan. Misol:

!لازم أدفع الكمبيالة الشهر الجاي

(Kelasi oy kreditimni to'lashim kerak!)

12. Locanda (It.) → لوكاندة (Misr shevasi)

Ma'nosi: Mehmonxona

Arab adabiy tili: فندق (funduq)

Sharh: Mehmonxonalar tizimi Yevropa orqali rivojlanganligi uchun bu so'z kirib kelgan. Misol:

!هنحجز في لوكاندة جنب البحر

(Dengiz yonida mehmonxona bron qilamiz!)

13. Moda (It.) → موضة (Misr shevasi)

Ma'nosi: Moda, urf

Arab adabiy tili: أزياء (azyaa)

Sharh: Yevropa modasi Misrga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Misol:

!اللبس ده طالع موضة جديدة

(Bu kiyim yangi moda!)

14. Sta bene (It.) → استبيننا (Misr shevasi)

Ma'nosi: Hammasi yaxshi, tushunarli

Arab adabiy tili: كل شيء بخير (kullu shay'in bikhayr) / فهمت (fahimt)

Sharh: Bu jumla odatda biror narsani tushunganlikni yoki biror holatning yaxshi ekanini ifodalash uchun ishlatiladi. Misol:

بعد ما شرحتي الموضوع قتلته استبيننا

(U menga tushuntirib bergandan keyin, men “Tushundim!” dedim!)

15. Ospedale (It.) → استباليه (Misr shevasi)

Ma'nosi: Kasalxona, shifoxona

Arab adabiy tili: مستشفى (mustashfa)

Sharh: Italiyaliklar Misrda tibbiyot sohasida ham o'z ta'sirini qoldirgan, shuning uchun bu atama kirib kelgan. Misol:

لازم نروح الاستباليه بسرعة

(Tezda kasalxonaga borishimiz kerak!)

16. Veranda (It.) → فيراندنا (Misr shevasi)

Ma'nosi: Veranda, ochiq ayvon

Arab adabiy tili: شرفة (shurfa)

Sharh: Veranda Yevropa uslubidagi binolar bilan bog'liq bo'lib, bu atama ham Misrga kirib kelgan. Misol:

بنحب نقعد في الفيراندا في الصيف

(Biz yozda verandada o'tirishni yoqtiramiz!)

17. Bravo (It.) → برافو (Misr shevasi)

Ma'nosi: Ofarin, zo'r

Arab adabiy tili: أحسنت (ahsant)

Sharh: Bu so'z odatda maqtov sifatida ishlatiladi, ayniqsa biror kishining muvaffaqiyati uchun. Misol:

برافو عليك! حلّيت المسألة صح

(Ajoyib! Sen misolni to'g'ri yechding!)

18. Tenda (It.) → تنّدة (Misr shevasi)

Ma'nosi: Soyabon, chodir

Arab adabiy tili: مظلة (mizolla)

Sharh: Misr shevasida tanda so'zi do'konlarning ustidagi soyabon yoki chodirga nisbatan ishlatiladi. Misol:

أنا قاعد تحت التنّدة

(Men soyabon ostida o'tiribman)

19. Ballo (It.) → بالو (Misr shevasi)

Ma'nosi: Raqs

Arab adabiy tili: رقص (raqis)

Sharh: Raqs san'ati ham Yevropa orqali Misr madaniyatiga ta'sir qilgan.

Misol:

!في الحفلة كان فيه بالو جميل

(Kecha ajoyib raqs bo'ldi!)

20. Teatro (It.) → تياترو (Tiyatro)

Ma'nosi: Teatr

Arab adabiy tili: مسرح (masroh)

Sharh: Misr shevasida ham italyan tilidagi ma'nosi saqlanib qolgan. Misol:

هنروح التياترو بليل

(Kechqurun teatrga boramiz.)

Xulosa qilib aytganda, Misr shevasiga italyan tilidan kirib kelgan so'zlar bu ikki xalq o'rtasidagi uzoq yillik aloqalar, savdo, madaniyat va tarixiy omillar natijasidir. Ushbu o'zlashmalar asosan oshxona, transport, pochta, moda va kundalik hayot bilan bog'liq bo'lib, ularning ba'zilar arab adabiy tilida mavjud bo'lsa-da, misrliklar ularni aynan italyancha talaffuz va shaklda ishlatishda davom etmoqda. Bu jarayon shuni ko'rsatadiki, til doimiy rivojlanishda bo'lib, turli madaniyatlar bilan o'zaro aloqalar natijasida boyib boradi. Italiyancha o'zlashma so'zlarning keng qo'llanilishi Misr jamiyatining ochiqligi va madaniy xilma-xilligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bugungi kunda ham globalizatsiya jarayonlari tufayli Misr shevasiga yangi xalqaro so'zlar kirib kelmoqda va bu tilning kelajakda yanada boyib borishini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Khaled Shaalan, H. M. Abo Bakr, and I. Ziedan. Transferring Egyptian Colloquial Dialect into Modern Standard Arabic. – Borovets, International Conference on Recent Advances in Natural Language Processing (RANLP), 2007.
2. Ewa Machut-Mendecka. The Egyptian Dialect as an Expression of

Linguistic Change in Arab Countries. – Varshava, “Rocznik Orientalistyczny,” (volume LXIV, issue 2, pages 46–53 of), 2011.

3. Weninger, S., Khan, G., Streck, M., and Watson, JCE. The Semitic Languages: An International Handbook. – Berlin, Walter de Gruyter, 2011.

4. Muhammad M. Enani, Dr. Mona Naeim Ahmed. Egyptian Arabic vs. MSA and Heritage Arabic: A Morphological Approach with Reference to Western Theories. – “مجلة وادي النيل للدراسات والبحوث الإنسانية والاجتماعية والتربوية” (Wadi Al-Nil Journal for Human, Social, and Educational Research), 2023.